

**FARG'ONA VODIYSI JADIDCHI – MA'RIFATPARVARLARNING MILLIY
TA'LIM – TARBIYAGA QO'SHGAN XISSALARINI QIYOSIY TAHLILI**

"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY"NOTM,

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası dotsenti,

Abdurazaqova Feruzaxon

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 59-guruh talabasi

Jo'rayeva Barnoxon Saydullajon qizi

Аннотация: Ushbu maqolada, eski maktablarda ham ba'zi bir o'zgarishlar yuz berganligi, yangi usul maktablarining ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy etilganligi – litografiyada bosilgan alifbolar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilinganligi haqida ma'lumot bergan. Qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birgalikda yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablarini hayotida katta siljish ro'y berganligi haqida ma'lumot berilgan.

Калит сўзлар: Фарғона водий, Жадинчи, таълим-тарбия, litografiya.

Annotation: This article reports that some changes have also occurred in old schools, and that under the influence of new-style schools, some innovations have been introduced in some old-style schools - literacy teaching was introduced based on the sound method using alphabets printed in lithography. Girls were taught to read and write at the same time. It is reported that these innovations have led to a significant shift in the life of Uzbek schools.

Key words: Ferghana Valley, Jadidchi, education, literacy

Markaziy Osiyo chor qo'shinlari tomonidan bosib olingandan so'ng o'lkada, jumladan Farg'ona vodiysida o'ziga xos tarixiy – siyosiy vaziyat yuzaga keldi, milliy zulm kuchaydi, bu zulm birinchi galda ma'naviyat, madaniyat, san'at, ijtimoiy va pedagogik fikr, aholining turmush tarziga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'lkaga kirib kelgan Yevropaga turmush tarzi xalqimizning asriy turmush tarzi, urf – odati, an'analari bilan to'qnashdi. Mana shu sohada muayyan ziddiyat va ayrim yangicha turmush tarziga yaqinlashuv jarayoni yuz berdi. Bu voqea hamda tarixiy hodisa XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida boshlash jarayon sifatida rivojlana boshladi. Bunda chor mustamlakachilari o'z voqealarini mustaxkamlashga intildilar.

Mustamlaka ma'muriyati dastlab mashg'ulotlari o'rta asr tartiblarida olib borilayotgan musulmon maktablarining ishiga aralashmas edilar. Ammo maktablarda rus tilini o'qitishni rag'batlantiruvchi choralar ko'rishga ham harakat qilinardi. Natijada mahalliy yoshlarga rus tilini o'rgatishga ko'proq e'tibor berila boshladi.

Eski maktablarda ham baʼzi bir oʻzgarishlar yuz berdi. Rus tuzem maktablarida hamda yangi usul maktablarining taʼsiri ostida baʼzi eski usul maktablarda birmuncha yangiliklar joriy etildi – **litografiya**¹ da bosilgan alifbolar yordamida tovush metodi asosida savod oʻrgatish joriy qilindi, qizlarga oʻqishni oʻrgatish bilan birgalikda yozishni ham oʻrgatishga kirishildi. Bu yangiliklarga koʻra oʻzbek maktablarini hayotida katta siljish roʻy berdi.

Biroq rus muxojirlari Turkiston general – gubernatorlarining farmoniga binoan oʻlkada rus maktablari, rus tuzim maktablari va gimnaziya kabi maktablar ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar va maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini oʻtkaza boshladilar. Bu bilan ular goʻyoki Markaziy Osiyo, jumladan Turkiston oʻlkasi aholisini savodxonlik darajasini oshirmoqchi boʻldilar va har bir qilingan ishni boʻrttirib koʻrsatishga urundilar. Chunonchi, oʻlka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus – tuzem, gimnaziya kabi oʻquv maskanlari kerak, madrasa va “ usuli qadimiya ” eski usul maktablarida, otinlar maktabida savod chiqarib boʻlmaydi, degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar. Bu oʻrinda biz tadqiqotimiz yoʻnalishiga oid quyidagi maʼlumotlarni koʻrsatib oʻtishni joiz deb topdik, yaʼni 1897 yildagi Rossiya minirasiyasi tomonidan oʻtkazilgan holi roʻyxati² maʼlumotlariga koʻra « oʻzbeklar – 98,48 sovsodsiz » deb koʻrsatishni mutlaqo uydirma, millatni kamsitish va boʻxtondan boshqa narsa emas edi.

«Arxiv » maʼlumotlariga koʻra birinchi Qoʻqon xonligiga qarashli Margʻilon, Qoʻqon, Namangan, Andijon va Oʻsh xududlarida 1 millionga yaqin aholi yashar edi. 1875 yilda bu xonlikda madrasa, maktab, korxonalar va ularda taxsil olayotgan oʻquvchilar koʻrsatkichi quyidagicha edi:

№	Qoʻqon xonligi xududlari	Madrasalar	Talabalar soni	Maktablar	Oʻquvchilar soni	Qorixolar	Oʻquvchilar soni
1	Margʻilon	57	838	433	7340	21	395
2	Qoʻqon	45	6929	301	4210	100	604
3	Andijon	30	996	428	6756	44	320
4	Namangan	40	1324	371	7121	50	305
5	Oʻsh	10	304	176	176	28	14
Jami :		182	182	10.391	28.728	235	1700

¹. Izox: Litografiya – yunoncha, « Litos » - toli, « Grafos » - yozaman degan maʼnolarni bildiradi. Bu atama oʻzbek tilida toshbosma tarzida qoʻllanib qelingan.

Bulardan tashqari 6154 ta masjid bo'lib, ularning ko'pchiligida maktablar ham mavjud bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, yuqoridagilar o'zbek milliy ma'naviyati, ma'rifat va madaniyati darajasida emas edi.

Qo'qonlik ma'rifatparvar shoir Furqat o'zining qanday ta'lim – tarbiya olganligi, qanday kitoblar o'qiganligini bayon etar ekan « Qur'oni ta'rif », « CHor kitobdan » keyin Fariddin Attor, «Mantiq – ut - tayr », Xofiz SHeroziy devoni, Bedil devoni, Alisher Navoiy «CHor devoni », Fuzuliy – g'azaliyoti « Avvali ilm » risolasi, « Qoriya » kitobi,

«SHarxiy muloyi jomiy », « Risolaiy shamsiya » va boshqa asarlarni sanab o'tadi. Furqat 8 yoshdan 10 yoshgacha ana shu asarlarni o'qib chiqqan. Ammo bugungi kunda ko'pchilik bu madaniyat sarchashmalaridan bebahra ekanligi sir emas.

Mudarrislar sharxiy an'anaviy tarbiyaga aloxida e'tibor berishgan. Bu ularning dars mashg'ulotlari ta'sirchanligini oshirar yoshlarning ma'naviy – ahloqiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatardi. Ular darslarda o'zlari uchun e'tiqodga, iymonga aylangan narsalar haqida fikr yurutishar edi. Masalan: mudarris yoki talaba, maktab yoki madrasaga maxsus tayyorgarlik ko'rmasdan bormas edi, toza kiyimlar kiyib, poklanib borishar edi. Maktabga, madrasaga e'tiqod bilan qarashar edi. Domla, qori va ustozlardan shunday tarbiya uslublaridan foydalanishar ediki, bu uslublar dilga, iymonga ta'sir etardi. Ularda mas'uliyat hissi kuchli edi, or – nomusni g'oyat yuqori tutib, talabalarga puxta ta'lim berish bilan birga, bilimni mutassil chuqurlashtirib, boyitib borishni talab ettirishardi, chunki, ertaga u yoki bu talaba uchun jamoatchilik « ustozingga la'nat » demasin.

Maktab va madrasalarda bitirish imtixonlariga ham mas'uliyat bilan qarashgan. Musulmon bayramlari, masalan, Hayit va Navro'z bayramlarida (maktablarda o'qish hozirgi hisob bilan 22 sentyabrda boshlanib, 22 martda tugagan.) mudarris o'qishning barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli tugatgan talabalarni qishloqlarda diniy rasm – rusmlarni boshqarish uchun jo'natgan, ularga jamoatchilik baho qo'ygan. Bu esa mudarrisga yanada ko'proq mas'uliyatni yuklar edi. Manbalarda deyarli kam uchrasada, ta'kidlash joyiz edi, yilda bir marta «Qur'oni Karim » ni nazmda, yoqimli va xatosiz qilib o'qish bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqa o'tkazilgan hamda g'oliblarga «qori» nufuzli islomiy unvon berilgan va bu unvonni g'olibning ismiga qo'shib murojaat qilish ta'moyilga kiritilgan va hozir ham shunday.

Turkiston o'lkasi, xususan Farg'ona vodiysi xalqlari 1917 yilgi to'ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, ular yuksak bilim egalari bo'lganlar. O'lka xalqlari eramizning VI – VII asrlaridan uyg'ur – turk yozuvlaridan o'z yozuvlari sifatida foydalanib, o'z zamonasiga mos ta'lim bergan bo'lsalar, son – sanoqsiz mutafakkirlar ana shu uyg'ur– turk va VIII asrdan boshlab arab grafikasi asosida savod chiqarib, butun jahonga dovrug' taratganlar « deyarli butunlar savodsiz » deb talqin etilgan ona yurtimizda unib – o'sgan jahon ilmiy va

amaliy tafakkurida alohida o`rin egallagan yuzlab qomusiy allomalarimizdan tortib, qori-yu, otinoyilarimizga savob o`rgatgan maktab-u, madrasalardan yuz o`gira olmaymiz.

Turkistonni birinchi gubernatori Fon Kaufman 1867- yili imperatorga yozgan raportida kuyidagilar ta`kidlab o`tilgan edi: Albatta, biz davlatlar tepasida xon va amirlar turgani bilan davlatni boshqarish ishlarida islom dini vakillari etakchi rolni o`ynaydi. SHu bilan birga bir qatorda fan va ma`rif so`asidagi ishlar ham islom dini vakillari qo`lidadir. Haqiqatdan ham O`rta Osiyo xududidagi chorizm bosib olgunga qadar mahalliy maktab va madrasalardagi ta`lim – tarbiya ishlari musulmon ruhoniylar qo`l ostida edi. Mavjud **madrasalar** maktabga nisbatan yuqoriroq madaniy markaz bo`lib, unda o`qiladigan fanlar 30 dan ortiq edi. Mazkur madrasalarda ta`lim – tarbiya ishlarini olib borayotgan islom **ulamo**³ lari mehnatkash xalq farzandlarini odob – ahloqli, halol pok va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalar edilar.

Farg`ona fodiysi bo`yicha nomi elga tanilgan madrasalar kuyidagilar edi:

Namanganda	Marg`ilonda	Qo`qonda	Andijonda
Jomiy madrasasi. Xudayorxon madrasasi. Xoslat madrasasi. Dadxox madrasasi.	Tursun Mu`ammad madrasasi. SHarifboy madrasasi.	Mohlar oyim madrasasi. Sulton Murotbek madrasasi. Tunqator madrasasi. Xakim To`ra madrasasi.	Abdurahmon Oftobchi madrasasi. Xudayorxon madrasasi. Nasriddinbek Poydevor madrasasi. Isabek Qo`libesh madrasasi. Zulfiqorbek madrasasi. Qambartoy madrasasi.

Turkiston general – gubernatori ma`muriyati tomonidan XIX asr oxirlariga kelib kuyidagicha yo`l o`rnatishdi va madrasalarga nisbatan nazoratni yanada kuchaytirildi:

1. Madrasalardagi **mutavalliy** lar ustidan xonliklar davrida joriy etilgan ma`muriy nazorat qiluvchi boshqaruvchi lavozimi tugatildi. Maqsad: madrasa ixtiyoridagi **vaqor** mulklarni talon – taroj qilish, moddiy futur etkazish.

³ **Ulamo**– arab. – Olim so`zini qo`lga qiritgan – bilimdon

2. Madrasalarni tamomlaganlarning davlat ishlariga olinishga to'sqinlik qilindi. Bu bilan chor hukumati madrasalarda ta'lim olayotganlarga va ma'rifatli bo'lish imtiyozda yurganlarga ilm – fanga bo'lgan qiziqishini so'ndirmoqchi edi.

3. Madrasalarda dunyo ilm – fanlarning o'qilishga qarshilik qilishdan iborat edi.

4. Yangi madrasalarni tashkil etish uchun maxsus ruxsatnoma bo'lishi shart edi. Mabodo madrasa ochilsa, unda albatta rus sinfi shart edi.

Bundan ko'rinadiki, mustamlakachilar aholisi ko'payib borayotgan mahalliy xalqqa yangi madrasalar qurishga imkon bermaslik, shuningdek, asta – sekin yerli xalqni yuqorida o'zlari o'ylagandek, sovotsiz qilish, madaniyatsiz va itoatgo'y qullarga aylantirishni nazarga tutgan bo'lsa, yangi qurulajak va mavjud madrasalarda rus sinflarini joriy etishdan maqsad mahalliy xalq turmush tarziga xristiyan urf – odatlarini, tilini asta – sekinlik bilan kiritishdan iborat edi.

Ilm shu darajaga borib etdiki, XX asr boshlarida chor hukumatni madrasalardagi mutavvaliy, mudarris va boshqa xizmatchilarni ham tayinlanadigan bo'ldi. Natijada madrasalardagi ta'lim – tarbiya ishlari izdan chiqdi.

1899- yili Farg'ona viloyati harbiy gubernatori madrasalar ihtiyoridagi Vaqor mulklaridan olinadigan mulklarni, daromadlarini egalariga bermaslik taklifi bilan chiqgach Farg'ona voydisidagi ko'pgina madrasalar moilaviy jihatdan qiyinchilikka duch keldi. Natijada Andijondagi « Abdurahmon Oftobchi », Marg'ilondagi « SHarifboy» madrasalari o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi. Mahalliy ziyoliylarning xalqni ilm – ma'rifatli qilish urinishlari va takliflari mustamlakachilar ma'muriyati tomonidan inobatga olinmadi. Natijada mahalliy xalq nafaqat o'z erkidan, balki madrasalaridan ham mahrum etila boshlandi.

1876- yilda Markaziy Osiyo tumanidagi general – gubernatori huzurida Turkiston o'quv yurtlarining maxsus boshqarmasi tamoyil etilgan bo'lib, avvalo, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish uning zimmasiga yuklatildi.

Genaral Razenbax shunday degan edi: « O'lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirish lozim ». haqiqatdan ham mustamlaka davlatlarida **rus – tuzim maktablari** vujudga keldi. Bu yil maktablarni ochilishi yuqoridagi maqsadni amaliy ifodasi edi. Afsuski, bu o'rinda ma'rifatli har qanday insonning jig'iga tegadigan bir holat ham bor edi, ya'ni « **Tuzemets** » degani ruscha o'zbekcha lug'atda « **mahalliy xalq** », « **tub aholi** » deb tarjima qilingan. Rus olimi Vladimir Dalning « Velikorus jonli tilining izohli lug'ati » kitobida mana shunday jumlarlar yoziladi: « Tuzемец. Mestniyy mtnasyamıya do izvestnoy straniy... « Tuzemniye jiteni chasti Okeanii stoyat ne » stoyat na nizshey stupeni chelovechestvs »⁴.

Mavjud tatdiqotchilarning va qo'lyozma mabaalarning guvohlik berishicha musulmon maktablarida ta'lim tizimi quyidagi 5 toifaga bo'lingan:

⁴ V. Dalъ. – « Толковный словарь живого Велиорусского языка », si., 1980y. 44-bet

1. **Quyil maktab** – bu maktablarda o'g'il bolalarga savod o'rgatilgan (4 yil)
2. **Xilxona maktabi** – (nomoz) yod oldirib o'rgatilgan.
3. **Qorixona** – Qur'on va hadis yod olingan.
4. **Maktab internat** – o'rta madrasa bo'lib, bu maktablarda diniy – dunyoviy fanlar o'qitilib ma'lumot berilgan.

5. **Qizlar maktabi** – otin oyilar faqat qizlarga ta'lim – tarbiya berish bilan shug'ullanganlar. Masalan: Dilshod otin (1880-1801, 1905-1906 y, Qo'qon), Anbar otin (1870-1906 y, Qo'qon) maktablari.

Beshinchi toifadan tashqari, qolgan musulmon maktablarda asosan o'g'il bolalar tahsil olganlar. E'tiborga olish kerak, rus tuzem maktablari hamda yangi xil maktablarning ta'siri ostida ba'zi eski usul maktablarida bir muncha yangiliklar joriy qilindi. Litografiyada bosilgan alifbolar yordamida tovush metodi asosida savod o'rgatish joriy qilindi, qizlarga o'qishni o'rgatish bilan birga yozishni ham o'rgatishga kirishildi. Bu kabi yangiliklarga ko'ra o'zbek maktablari hayoti ham katta siljishlar ro'y berdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch . T, 'MA'NAVIYAT '2010Y.
2. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. O'zbekiston tarixi.-1999, 1jb, 3-14.3. Pedagogika tarixi.-T, o'qituvchi nashri.
3. “Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi. Asarlar, ikki tomlik, I tom G'.G'ulom nomli Badiiy adabiyot nashriyoti, 1969, 111-112- betlar.
4. O'zbek pedagogika tarixi. Professor Asqar Zunnunovning umumiy tahriri ostida. T., O'qituvchi. 1997-yil
5. F.K.Abdurazaqova, Farg'ona vodiysi jadidchi marifatparvarlarining ma'daniy- ma'naviy merosi. Qo'llanma.. Hayot nashr, Andijon 2024.
6. Tojiboyeva, G., & Shobdurahimova, U. (2022). O 'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI, UNI BAHOLASH MEKANIZMI VA PSIXOLOGIYASI. *Архив научных исследований*, 2(1).
7. Таджибаева, Г. Р. (2021). ПРИЧИНЫ И ПУТИ РАЗРЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 4(3).